


31. Qo'shishning xossalari

Yondosh mavzu:
Madaniy ekinlar

Ustun ko'rinishida
qo'shish, qo'shishning o'rin
almashtirish xossasi.




1. O'tgan yili bitta olma daraxtidan 9 kilogramm, bu yil esa 22 kilogramm olma terib olindi. Ikki yil davomida olma daraxtidan jami qancha hosil terib olindi?

Nima deb o'ylaysiz, qo'shishga doir
misollarning qaysi biri qulayroq?

Nima uchun?

Qo'shishning qaysi xossasidan
foydalanilgan?



2. Qo'shishning o'rin almashtirish xossasidan foydalanib
misollarni ustun shaklida yeching.

$$7 + 25$$

$$3 + 48$$

$$2 + 49$$

$$5 + 27$$

$$3 + 29$$

$$8 + 85$$




**Ustun shaklida qo'shishda
katta songa kichik son qo'shiladi.**



3. Ifoda yozing. Qo'shishning guruhlash
xossasidan foydalaning.

Xiyobonga 25 ta kvadrat, 29 ta oval
va 31 ta aylana shaklida gultuvaklar
o'rnatilgan. Xiyobonda jami nechta
gultuvak bor?





4. Qaysi meva qaysi daraxtdan tushganligini toping.

$$25 + 54 + 16$$

$$41 + 19 + 24$$

$$9 + 37 + 13$$

$$46 + 12 + 24$$



59



82



84



95



5. Ushbu masalaga teskari masalalar tuzing.

Chelaklab sug'organda bir soatda 8 ta daraxtni sug'orish mumkin. Avtomatik tarzda sug'orilsa, bir soatda 55 ta daraxtni sug'orish mumkin. Chelaklab sug'orishga qaraganda avtomatik tarzda bir soatda nechta ko'p daraxtni sug'orish mumkin?



6. Qulay usulda yeching.

$$11 + 8 + 14 + 7 + 9 + 6 + 12 + 23$$

$$11 + 4 + 13 + 19 + 16 + 27$$

$$3 + 15 + 6 + 22 + 7 + 8 + 4 + 5$$

Hosil bo'lgan natijalar nima deb ataladi?



7. Misollarni qoida asosida yozing va yeching.

+ 28	+ 35	+ 81	+ 76	+ 9	+ 5
4	56	12	18	4	9



8. Shahar xiyoboniga yangi o'rindiqlar qo'yildi. Ulardan 34 tasi dam olish hududiga, 25 tasi bolalar maydonchasiga, 16 tasi yozgi musiqa zaliga o'rnatilgan. Xiyobonga jami qancha yangi o'rindiq qo'yilgan?